

Toshkent mintaqaviy temir yo'l uzelinining tarixi

Toshkent mintaqaviy temir yo'l uzeli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 noyabrdagi 378-sonli buyrug'iga asosan tashkil etilgan. "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aktsiyadorlik kompaniyasining 2002 yil 7 noyabrdagi 270-N-sonli boshqaruv kengashi raisi buyrug'i bilan ushbu qaror hududiy temir yo'l tarmog'ining tashkiliy tuzilmasini va hududiy temir yo'l uchastkasining odatiy boshqaruv tuzilmasini tasdiqladi.

Toshkent uzeliidagi asosiy faoliyati - aholi va sanoat korxonalarining transport va xizmat ko'rsatish ehtiyojlarini o'z vaqtida va sifatli ta'minlashdir. Toshkent uzeliidagi xizmat ko'rsatadigan temir yo'l liniyalarining umumiy uzunligi 728 km bo'lib, Toshkent shahar, Toshkent, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarini qamrab oladi. Shu bilan birga, o'rnatilgan uzunlik 1015,5 km, kirish yo'llarining uzunligi 98,8 km, stantsiya yo'llari 602,3 km, strelka o'tkazgichlari 1690 dona bo'lib, jami 64 ta muhofazalangan-nazorat o'tish joylari mavjud bo'lib, shunda asosiy yo'nalishlarda - 32 ta, kirish yo'llarida -36 ta.

Toshkent mintaqaviy temir yo'l uchastkasi jamoasi Afrosiyob poezdini davom ettirish uchun Toshkent-Samarqand tezyurar uchastkasini ishga tushirish borasida ulkan ishlarni amalga oshirdi.

Toshkent mintaqaviy temir yo'l uzeli 50 ta stantsiya, 4 ta razyezd (3,6,9,205), Dalaguzar dezinfektsiyalash-yuvish stantsiyasi, Saryagach, Bekobod va Sirdaryo davlatlararo chegara punktlaridan iborat.

Uzel hududiy va tarkibiy korhonalarni o'z ichiga oladi.

Hududiy bo'linmalardan Toshkent-Yuk vagon deposi (VChD-1), yo'l masofa distantsiyalari (PCh-1, PCh-2, PCh-4, PCh-5), elektr ta'minoti distantsiyalari (ECh-1, ECh-2), signalizatsiya va aloqa distantsiyalari (ShCh1, ShCh3), Toshkent suv va ta'minoti va binolarni saqlash distantsiyasi (VODCh), Hovos moddiy-texnik ta'minot otdeli (NODX), tiklovchi poedlar (VP Tashkent, VP Hovos), Toshkent ta'mirlash-qurilish uchastkasi (RSU), "Gulobod-meva" sabzavot, polizchilik va chorvachilik xo'jaligi.

Tarkibiy bo'linmalar: "Qibray" va "Yangi avlod" bolalar dam olish maskanlari, "Lokomotiv" stadioni, "Lokomotiv" mehmonxonasi.

Uzelning asosiy vazifalari va funktsiyalari.

1.Uzelning asosiy vazifalari kuyidagilardan iborat:

- axoli va xujalik sub'ektlarini temir yul tashishlarga bulgan extiyojini

tula va uz vaktida qondirish;

- tashuvlar mintaqaviy bozori kon'yunkturasini urgangan xolda ularning infratuzilmasini shakillantirish, jaxon andozalari darajasida xizmatlar kursatishni ta'minlash, shuningdek temir yul transporti tarmoqlarini rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- temir yul transporti xizmat ko'rsatiladigan mijozlar yukini o'z vaqtida yuklar butligini ta'minlangan xolda manziliga yetkazish;

- temir yul transportining xizmat kursatiladigan xudud doirasida barqaror va xavfsiz ishlashni ta'minlash, foydalanuvchilarga keng ko'lamda temir yul xizmatlarini kursatish;

- yuklar, yulovchilar, pochta va bagajlar tashish soxasida ushbu xizmatlardan foydalanuvchi mijozlarga kulayliklar yaratgan xolda sifatli va xavfsiz xizmatlarni tashkil etish;

- joylardagi davlat xokimiyati va boshkaruv organlari bilan birgalikda temir yul transporti bulinmalarining moddiy-texnika bazasini mustaxkamlashga doir chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- xizmat ko'rsatish xududida temir yul tarmoqlarining ish barqarorligini va o'tkazish imkoniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasi chegaralari orqali yuk va yulovchilarni tashish borasida joylardagi bojxona va soliq idoralari, chegara xizmati bilan aniq muvofiqlashtirilgan xolda o'zaro xamkorlikni ta'minlash;

- temir yul transportida yagona ilmiy-texnika va investitsiyaviy siyosatni yuritishda ko'maklashish;

- yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqilishi va joriy etilishini, temir yul transportining kompleks rivojlanishini tashkil etishda ishtirok etish;

- temir yul tarmoqlarini moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash, ularni yanada rivojlantirish va bajarish imkoniyatlarini oshirish, yangi temir yo'l liniyalari, ko'priklar va boshqa sun'iy inshootlar qurish, ularni rekonstruktsiya qilish va texnik qayta qurollantirish, ilg'or texnologiyalar va zamonaviy menedjment usullarini keng joriy etishda ishtiroq etish;

- Uzel tarkibiy bo'linmalarida xizmat ko'rsatish-ekspluatatsiya va rivojlanish extiyojlari uchun import o'rnini bosuvchi maxsulotlar, extiyot qismlar, detallar va jixozlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va uni rivojlantirish;

- atrof-muhit muxofazasi bo'yicha ekologiya meyorlarini belgilash va belgilangan meyorlariga rioya qilishda davlat tomonidan chiqarilayotgan qonun va karorlarini ijrosini ta'minlash;

- Uzel xodimlarini atetatsiyasini utkazish, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ishlab chiqarish madaniyatini oshirish, mexnat va texnika xavfsizligini ta'minlash.

2.Uzel belgilangan vazifalarii amalga oshirish uchun **quyidagi funktsiyalar bajarilishini ta'minlaydi:**

temir yul orqali tashish jarayoni doirasida:

-belgilangan yuk tashish rejalarini bajarishni ta'minlash;

- belgilangan chegaralar doirasida, shu jumladan davlatlararo tutash punktlari orqali, chegaralar bojxona va xuquqni himoya qilish idoralari bilan birgalikda yuk va yulovchi poezdlarini to'siqsiz o'tishini ta'minlash;

- Uzel tarkibiy bulinmalaridagi texnik vositalar va jixozlarni shay xolatda tutish;

- yuk tashish xo'jjatlarini to'ldirish qoidalariga qat'iy amal qilish; yong'in xavfsizligini, yuk, pochta va bagajlarni tashish hamda transport vositalari xavfsizligini ta'minlash;

- favqulotda vaziyatlarda yuk tashishni tartibga solish va vujudga kelgan sharoitda belgilangan tadbirlarni bajarishni ta'minlash;

- tashish jarayonida ishtiroq etuvchi barcha bulinmalarning o'zaro aniq xamkorligini ta'minlash;

- portlovchi, tez yonuvchi, zaxarli moddalar, ya'ni xavfli yuklarni tashish jarayonida xavfsizlikni ta'minlash choralarini ko'rish;

- temir yul transporta vositalarini falokatsiz tashish chora-tadbirlarini tashkil etish va bajarish;

- davlat sirlari va xizmatga taaluqli ma'lumotlarni tarqalishini oldini oluvchi chora-tadbirlarni ko'rish;

iqtisod va moliyal sohasida:

- Uzel va uning tarkibiga kiruvchi bulinmalarni xujalik boshqaruvini tashkil etish va barcha faoliyat turlari buyicha moliyalashni tashkil etish;

- Uzel Uzbekiston Respublikasining «Buxgalterlik xisobi tugrisida»gi qonuni buyicha, buxgalterlik xisobining milliy standartlariga muvofiq xolda buxgalterlik xisobot yuritish. Moliyaviy va statistik hisobotni amaldagi qonunchilik xo'jjatlari bilan belgilangan tartibda amalga oshirish;

- Uzel belgilangan tartibda «O'zbekiston temir yo'llari» aktsiyadorlik jamiyatiga, soliq va boshqa davlat idoralariga amaldagi qonun xo'jjatlariga muvofiq ravishda o'z

moliyaviy-xo'jalik faoliyatining natijalari haqidagi zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etadi;

- temir yul xizmatlari uchun barcha to'lovlarni o'z vaqtida to'la undirish hamda ularni «O'zbekiston temir yo'llari» aktsiyadorlik jamiyatining asosiy daromad xisob raqamiga utkazish;

-tashilgan yuklar uchun debitor qarzlarni va uni tugatilishini nazorat qilish, hisobga olish va debitor karzlarni undirish bo'yicha xo'jjatlar tayyorlash hamda ularni xo'jalik sudlariga oshirish;

-bekatlardagi yuk-tovar idoralarida o'ta muhim bo'lgan xujjat varaqalarini saqlanishini ta'minlash;

-temir yul transportida yuk va yulovchilar tashishning servis va marketing tadqiqotlarini tashkil etishda ishtiroq etish;

-Uzel tarkibiy bo'linmalari moliyaviy-xujalik faoliyatining istiqbol ko'rsatkichlarini tuzish va uni bajarish;

-transport texnika vositalarini hamda temir yul transporti bino va inshootlarini ta'mirlashni tashkil etish;

- Uzel xodimlarining mehnat haqlari va mukofotlash tizimi va shakllarini aniqlash hamda bu ishlarni tarkibiy bulinmalarda nazorat qilish;

- ijtimoiy rivojlantirish, Uzel ishchi xodimlarini ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash buyicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- sof tushumdan belgilangan tartibda va miqdorda nafaqa jamgarmasiga badallar, qo'shimcha qiymatga soliqlar, daromadga soliqlar to'lovlaridan, hamda avtomobil yo'llari ta'miri va qurilishiga chegirmalar, infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqlardan tashkari barcha turdagi soliklar va chegirma tulovlari va xisoblarini amalga oshirish;

-Uzel va uning tarkibiy bulinmalarining iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining istiqbol rejalarini tuzish;

texnik siyosat sohasida:

-mutlaqo yangi texnika va texnologiyalarni, ilg'or tajribalarni joriy etish, ixtiro, ratsionalizatorlik va patent-litsenziyalashtirish faoliyatini rivojlantirish;

-atrof muhitni zararli chiqindilardan saqlash va ekologik toza texnologiyalarni, jarayonlarni va zararli chiqindilarni kamaytiradigan transport vositalarini keng joriy etish;

moddiy-texnika ta'minoti sohasida:

-Uzel va uning tarkibiga kiruvchi bulinmalarning asosiy vositalarini soz holda tutish va ularni me'yorida ishlashi uchun kerakli bo'lgan extiyot qismlar hamda yonilgi energetika resurslari bilan ta'minlash;

-falokatlar, avariya va boshqa nazarda tutilmagan hodisalarning oqibatlarini bartaraf etish uchun moddiy-texnika resurslarning barcha turlaridan zaxiralar tashkil etish;

-favqulotda vaziyatlar davrida Uzelning safarbarligini ta'minlash uchun moddiy-texnika resurslari zaxiralarini tuzish va tayyorgarligini ta'minlash;

kadrlar, mehnat va ijtimoiy masalalar sohasida:

-xodimlarni tanlash, ularni yuksalishi uchun sharoit yaratish, mas'uliyati vajavobgarligini oshirish, rag'batlantirish va ijtimoiy muxofaza kilish tizimlarini belgilash;

- Uzel extiyoji uchun kadrlarni kasbiy va iqtisodiy uqishini tashkil etish, uning moddiy bazasi va rivojlanishini ta'minlash;

-ommaviy kasb egalari va mutaxassislarni Uquv muassasalarda va ishlab chiqarishda tayyorlash;

-qayta tayyorlash va malakasini oshirishni, shuningdek ularni ish o'rganishlarini (stajirovkalarini) ta'minlash;

-temir yul transportida samarali kadrlar siyosatini amalga oshirish; poezdlar xarakati bilan bevosita bog'liq bo'lgan Uzel xodimlarining alohida toifalari uchun amaldagi qonunchilikka muvofik, mexnat sharoitlari xususiyatlarini, ish vaqti va dam olish vaqti rejimlarini bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish;

- Uzel ishchi-xodimlari attestatsiyasini utkazish, ishlab-chiqarish madaniyatini oshirish, mehnat va texnika xavfsizligini ta'minlash.

